

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"

Komissiya raisi

O'zbekiston davlat jahon
tillari universiteti rektori

I. Tuxtasinov

2025-yil



TEXNIK VAZIFA

“ANTIPLAGIAT-VUZ” 5.0. dasturi uchun

Tashkent 2025-y

“Antiplagiat-vuz” 5.0. dasturi quyidagi minimal talablarga javob berishi talab etiladi:

O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga javob berishi; dasturiy ta’minotning qonunchilikda belgilangan talablar asosida ishlab chiqilganligi va axborot xavfsizligi talablariga muvofiqligi yuzasidan “Kiberxavfsizlik markazi” DUKning xulosasi mavjudligi;

tekshirilgan bitiruv malakaviy ishlari va dissertatsiyalar saqlanadigan serverning O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashganligi; o‘zbek, qoraqalpoq, rus, ingliz (va boshqa) tillardagi matnlarni ko‘chirmachilikka tekshirish imkoniyatining mavjudligi;

foydalanuvchi uchun tizimning kamida o‘zbek, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida dastur interfeysi va foydalanish yo‘riqnomasi mavjudligi.

bitiruv malakaviy ishlari va dissertatsiyalarni turli xil formatda tekshirish, ko‘chirilgan ma’lumotlarning qaysi manbalardan olinganini aniqlash, matnlardagi ko‘chirmachilikni (parafraza) va sun’iy intellekt asosida generatsiya qilingan matnlarni aniqlash imkoniyatining mavjudligi;

xalqaro e’tirof etilgan bazalar bilan bog‘langanligi, ma’lumotlar bazasida turli tillardagi manbalar mavjudligi, jumladan maxsus ma’lumotlar bazalari, xalqaro ilmiy nashriyotlar, kutubxonalar to‘plamlarining mavjudligi;

milliy ilmiy nashrlar bazasiga va zarur hollarda boshqa tizimlarga integratsiya qilish imkoniyatining mavjudligi;

bitiruv malakaviy ishlari va dissertatsiyalarni tekshirish natijasida matn tahliliga doir to‘liq hisobotni va belgilangan namunadagi xulosani taqdim etish imkoniyatining mavjudligi.

- “Antiplagiat-vuz” 5.0. dasturi quyidagi afzalliklarga ega:
- Hujjatlarni nafaqat ochiq internet manbalari, balki ilmiy-ta’lim resurslarning
- xorijiy, rus va mahalliy ma’lumotlar bazalaridagi yopiq to‘plamlari: kitoblar, darsliklar,
- ilmiy jurnallar, konferensiya materiallari, tezislari, dissertatsiyalar, monografiyalar,
- shuningdek patentlar va me’yoriy-huquqiy hujjatlar boyicha ham tekshiradi (manbalarning
- to‘liq ro‘yxati ilova 2 berilgan);
- Sun’iy intellekt, ya’ni neyron tarmoqlar yordamida yaratilgan matnlarni (m-n, GPT-2, GPT3,
- ChatGPT va b.) avtomatik aniqlaydi va ularni “Shubhali hujjat” deb ko‘rsatadi;

- Tekshirilayotgan hujjat qaysi tilda bo'lishidan qat'iy nazar, bir vaqtning o'zida dunyoning
- 100 tilida tarjima qilish orqali o'zlashtirilgan gaplarni topadi;
- Tashqi manbalardan olingan tasvirlarni aniqlaydi (rasmlar, grafiklar, jadvallar).
- Tizimni muassasangizda o'rnatish va ishlatish:
- boshqa manbalardan ko'chirish, gaplarni noqonuniy o'zlashtirishlarni o'z vaqtida aniq
- Manbalarning birlashgan to'plami bo'yicha qidiruvni ta'minlaydi:
- Internet qidiruv moduli- internet tarmog'ining ilmiy ta'lim segmentni ochiq tazdagi manbalari (400 mln.+ indekslangan manbalar, shu jumladan 50 mln.+ ingliz tildagi manbalar);
- O'zR MK, RDK (RGB), BMK (NBB) to'plami- A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy Kutubxonasi, Rossiya Davlat Kutubxonasi, Belarus Milliy Kutubxonasi fondidagi to'liq matnli dissertatsiyalar va avtoreferatlar to'plami (962 ming);
- e-LIBRARY.RU to'plami - e-LIBRARY. RU elektron ilmiy kutubxonasi fondining rus va xorijiy tillardagi ilmiy maqolalarni to'liq matni (10,7 mln.+);
- EKTning jamlama to'plami – bir qancha elektron kutubxona tizimlarining birlashgan to'plami: Lan, Universitetskaya biblioteka online, Aybuks, Bibliorossika, Yurayt, Book.ru, Konsultant studenta (450 ming +);
- GARANT kolleksiyasi (to'plami) – me'yoriy-huquqiy xujjatlardan tashkil topgan EHT «Sistema Garant» (69 mln.+)
- ADILET kolleksiyasi (to'plami) - Qozog'iston Respublikasining me'yoriy-huquqiy xujjatlari (160 ming +);
- PATENTlar kolleksiyasi (to'plami) – rus va xorijiy tillardagi patentlar (11,5 mln);
- MEDITSINA kolleksiyasi (to'plami)- tibbiyot va farmasevtikaga oid ilmiy va o'quv adabiyotlar:
- «GEOTAR-Media» nashriyoti, I.M. Sechenov nomli 1-MDTuning MITK (markaziy ilmiy-tibbiy kutubxonasi), «Meditsina» nashriyoti (54 ming +);
- KOLSO VUZOV kolleksiyasi (to'plami) –
- Kolso vuzov loyihasining OTM-qatnashchilarini jamlama to'plami (1 mln.+);
- Tarjima orqali o'zlashtirilgan gaplarni aniqlash moduli (tekshirilayotgan xujjat qaysi tilda bo'lishidan qat'iy nazar bir vaqtning o'zida dunyoning 100ta tilida tekshiradi);
- 550 mln.+ xujjatlarni o'z ichiga olgan
- Matnli hujjatlarda o'zlashtirilgan gaplarni qidiradi: hujjatlarni foydalanuvchi panelida va API orqali o'rnatish, tekshirish hisobotlarini shakllantirish va tekshirishlar bo'yicha batafsil statistikaning hisoblab chiqish.

- Tashkilotning o'z kolleksiyasini rus tilda yoki milliy tilda saqlab qolish imkonini beradi. Bundan tashqari, u o'qituvchi va talabalarga shaxsiy kabinetlar taqdim etadi, BMI va talabalarning boshqa ishlarini tekshirish uchun ular o'rtasida o'zaro hamkorlik jarayonlari, shuningdek, talabalar ishlarini tashkilotning elektron kutubxona tizimiga joylashtirilishini ta'minlaydi. API yordamida mijozning axborot tizimi bilan integratsiyalashuvi mijoz tomonidan amalga oshiriladi.

Yetkazib berish muddati

Shartnoma tuzilib 30% oldindan to'lov amalga oshirilgandan so'ng 5 kun ichida yetkazib berishi shart.

To'lov shartlari

- oylik to'lov miqdorining 30% oldindan, qolgan 70% miqdor amalga oshirilgan ishlar yuzasidan dalolatnoma rasmiylashtirilgandan so'ng o'tkaziladi.

Moliyalashtirish shartlari

- o'z mablag'lari hisobidan O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida.

Xaridlar bo'yicha komissiya a'zolari:

- | | | | |
|----|---|----------------|--|
| 1 |  | M. Xamrayev | Moliya -iqtisod ishlari bo'yicha prorektor, a'zo |
| 2 |  | B. Xashimov | Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens-nazorat tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i, a'zo |
| 3. |  | S. Tuychiyev | Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i, a'zo |
| 4. |  | L. Zaripov | Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, a'zo |
| 5. |  | R. Xolmuradov | Xaridlar bilan ishlash va ta'minot bo'limi boshlig'i, kotib |
| 6. |  | A. Artikov | Bosh muxandis, a'zo |
| 7. |  | I. Siddikov | xisobchi, a'zo |
| 8. |  | F. Abdullayeva | Ilmiy va innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limi boshlig'i |